

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02.30.12. 2019.K/T.35.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

XOSHIMOV SHAXROM MANSURJON O'G'LI

**QIZILMIYA CHIQINDISI ASOSIDAGI UGLERODLI
MATERIALLARNING TUZILISHI VA ADSORBSION XOSSALARIGA
KALIY GIDROKSID BILAN FAOLLASHNING TA'SIRI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of doctor of filosofy (PhD)

Xoshimov Shaxrom Mansurjon o'g'li

Qizilmiya chiqindisi asosidagi uglerodli materiallarning tuzilishi va adsorbsion xossalarga kaliy gidroksid bilan faollashning ta'siri3

Хошимов Шахром Мансуржон угли

Влияние активации с гидроксидом калия на структуру и адсорбционные свойства углеродных материалов на основе отхода солодки21

Xoshimov Shaxrom Mansurjon o'g'li

The effect of activation with Potassium hydroxide on the structure and adsorption properties of carbon materials based on licorice root waste. 39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

XOSHIMOV SHAXROM MANSURJON O‘G‘LI

**QIZILMIYA CHIQINDISI ASOSIDAGI UGLERODLI
MATERIALLARNING TUZILISHI VA ADSORBSION XOSSALARIGA
KALIY GIDROKSID BILAN FAOLLASHNING TA’SIRI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PHD/K739 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.ionx.uz va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshmetov Izzat Do'simbatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubov Yo'ldosh Yusupboyevich
kimyo fanlari doktori, professor

Ismailov Rovshan Israilovich
kimyo fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Toshkent kimyo texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01 raqamli Ilmiy kengashning « 27 » avgust 2024 yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (+99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90, e-mail: ionx@academy.uz.

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (18-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60); faks: (+99871) 262-79-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 12 » avgust kuni tarqatildi.
(2024 yil « 12 » avgustdagi № 18- reestr bayonnomasi)



B.S.Zakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

D.S.Salixanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.

B.Z.Adizov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda soʻnggi yillarda havo, oqova suvlar va oziq-ovqat mahsulotlarini tozalash sifatini oshirishga boʻlgan talablar kuchayib bormoqda, bu esa sanoat faoliyatining oʻsishi hamda ekologik normalarning kuchaytirilishi bilan bogʻliq. Bu borada qayta tiklanadigan manbalar, shu jumladan oʻsimlik xom ashyosi asosidagi yangi, samarali va ekologik toza adsorbentlarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Oʻsimlik xom ashyosidan uglerod adsorbentlarini yaratish nafaqat anʼanaviy tiklanmaydigan materiallarga boʻlgan tobelikni kamaytirishi, balki tozalash jarayonlarining iqtisodiy va ekologik samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Jahonda mahalliy xom ashyo va sanoat chiqindilari asosida yangi adsorbentlar yaratish va ularni oqova suv, oʻsimlik moylari hamda boshqa suyuqliklarni tozalash boʻyicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, qator ilmiy yechimlarni asoslashga, jumladan: mahalliy xom ashyo resurslari va sanoat chiqindilarini tanlash, oʻsimlik xom ashyosini termik faollashtirish hamda uning kimyoviy modifikatsiyasini oʻtkazish, adsorbent xossalari yaxshilangan va gʻovakli strukturaga ega boʻlgan uglerod adsorbentlarini yaratish, uglerod adsorbentlarining turli noorganik va organik muhitlardagi ifloslantiruvchilar bilan oʻzaro taʼsirlashish sharoitlarini oʻrganish hamda uglerod va boshqa adsorbentlar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Respublikada yangi materiallar olish, hususan mahalliy oʻsimlik xom ashyosi asosida uglerod adsorbentlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish boʻyicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasining uchinchi yoʻnalishida «Milliy iqtisodiyot barqarorligini taʼminlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish»¹ boʻyicha muhim vazifalar belgilangan. Bu borada zamonaviy oziq-ovqat sanoati va atrof-muhit muhofazasi talablariga javob beradigan yuqori samarali uglerod adsorbentlarini yaratish, adsorbentlarning faollashtirish usullari va funksional xususiyatlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrnatish katta ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «Yangi Oʻzbekistonning 2022-2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi» toʻgʻrisidagi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmonlari, 2017-yil 23-avgustidagi PQ-3236-son «2017-2021-yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi toʻgʻrisida»gi, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-son «Oʻzbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Qarorlari va ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida» gi Farmoni

dissertatsiya ishi xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Olib borilgan tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Dunyo bo‘ylab turli ko‘mir va bog‘lovchi moddalar asosida uglerod adsorbentlarini yaratish bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar turli ilmiy maktablarning olimlari tomonidan faol olib borilmoqda. Ular orasida quyidagi tadqiqotchilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: X. Zhang, J. Kemia, Кинле Х., Бутирин Г.М., Поконова Ю.В., Мухин В.М., Колишкин Д.А., Чучалина А.Д. Bu va boshqa olimlar yuqori g‘ovakli adsorbentlar yaratish maqsadida samarali bog‘lovchi qo‘shimchalar va ko‘mir materiallarini tanlash masalasini o‘rganishga faol hissa qo‘shmoqdalar.

O‘zbekistonda K.S.Ahmedov rahbarligida adsorbentlarni tadqiq qilish va yaratishga qaratilgan ilmiy maktab tashkil qilingan bo‘lib, uning vakillari: E.A.Aripov, S.S.Hamraev, S.N.Aminov, A.A.Ag‘zamxo‘jayev, U.K.Ahmedov, B.N.Hamidov, S.Z.Muminov, S.A.Abdurahimov, I.D.Eshmetov, Sh.A.Kuldasheva, D.S.Salixanova, D.J.Jumayeva, A.B.Abdikamalova, O.K.Ergashev va boshqalar uning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Ta’kidlash joizki, shu kungacha o‘simlik xom ashyosi asosida yangi turdagi samarali adsorbentlarni ishlab chiqish bo‘yicha tizimli tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Jumladan, qizilmiya ildizpoyasi chiqindisi asosida adsorbentlar yaratish, ularning g‘ovakli strukturasi shakllantirish va tayyor mahsulotlarning to‘qimali xususiyatlariga kimyoviy va termik faollashtirish parametrlarining ta’siri haqida ma’lumotlar yo‘q. Bu sohada ilmiy ishlanmalar uchun yangi istiqbollarni ochib, adsorbent materiallarning funksional xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot rejalari muvofiq “Neft, neft-gaz qazib chiqarish sanoati chiqindi suvlarini tozalash uchun adsorbentlar va reagentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish, shuningdek, ko‘chma tuproq-qumli dispersiyalarda mustahkam struktura hosil qiluvchi reagentlar tarkibini yaratish” mavzusidagi davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi qizilmiya chiqindisi asosidagi uglerod materiallarining strukturasi va adsorbent xususiyatlariga kaliy gidroksidi bilan faollashtirishning ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qizilmiya ildizpoyasi chiqindisi tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish hamda uning adsorbentlar ishlab chiqarishdagi imkoniyatini aniqlash;

qizilmiya ildizpoyasi chiqindisini termik faollashtirishning, olinadigan uglerod materialining strukturaviy hamda tekstur xususiyatlariga ta’sirini baholash;

namunalarning g‘ovakligi va adsorbent qobiliyatining ishlov berish sharoitlariga qarab o‘zgarishini o‘rganish;

qizilmiya ildizpoyasi chiqindisi asosidagi ko'mirlarning strukturasi va g'ovaklik xususiyatlariga kimyoviy faollashtirishning ta'sirini tahlil qilish, adsorbsion xususiyatlarni yaxshilash uchun maqbul faollashtirish sharoitlarini aniqlash;

gaz va suvli muhitlardan turli adsorbatlarga nisbatan issiqlik va kimyoviy faollashtirilgan uglerodlarning adsorbsion xususiyatlarini baholash;

ishlab chiqilgan uglerod adsorbentlarining sanoat jarayonlarida, shu jumladan yengil yog'lar va distillangan glitserinni tozalashda qo'llanilishini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida qizilmiya ildizpoyasi chiqindisi va uning asosida kimyoviy va termofaollashtirilgan ko'mir namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti qizilmiya ildizi qoldiqlarini termik faollashtirish, karbonizatsiyalash va kimyoviy faollashtirish shartlari, uglerod adsorbentlarining adsorbsion xususiyatlari, soya moyi hamda glitserinni tozalash qonuniyatini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishda dispers sistemalarning fizik-kimyoviy (rentgenofazaviy, rentgenofluoessent, termik, elektron-mikroskopik, IQ-spektral tahlillari) va kolloid-kimyoviy (adsorbsion, konduktometriya, titrometriya tahlillari) xususiyatlarini aniqlash uchun zamonaviy va an'anaviy usullar keng qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'mirlarning termik ishlov berish haroratini oshirish ularning benzol bo'yicha adsorbsion sig'imining ortishiga va maksimal sig'im 800°C da ishlov berilganda $1,668 \text{ mmol/g}$ ni, shu bilan birga KOH eritmasi bilan ko'mirlarni kimyoviy faollashtirish ularning yod bo'yicha adsorbsion faolligini faollashtirilmagan ko'mir uchun $80,645 \text{ mg/g}$, faollashtirilgan namunalarda uchun $1117,6 \text{ mg/g}$ gacha oshirishi aniqlangan;

haroratning oshishi bilan ko'mirlarda azot boyicha solishtirma yuzaning oshib borishi va eng yuqori solishtirma yuzaga $169,8 \text{ m}^2/\text{g}$ ($800-850^{\circ}\text{C}$) da erishildi, haroratni yanada oshirilishi solishtirma yuzaning $77,5 \text{ m}^2/\text{g}$ gacha pasayishiga, bu g'ovaklarning birlashishi yoki yo'qolishi kabi strukturaviy o'zgarishlar hisobiga bo'lishi aniqlandi;

KOHning karbonizatga nisbati 1:1 (AK1-800) va 1:5 (AK5-800) bo'lganida solishtirma yuzaga $698,93$ dan $1451,16 \text{ m}^2/\text{g}$ gacha hamda g'ovaklarning umumiy hajmi $0,2543$ dan $0,5167 \text{ sm}^3/\text{g}$ gacha ortishi, karbonizat:KOH (AK7-800) nisbatini yanada oshirish bu ko'rsatkichlarning pasayishiga, yani g'ovaklarning qisman to'silishi va ularning adsorbsiya samaradorligini kamaytirishiga olib kelishi aniqlangan;

karbonizatning kimyoviy faollashtirilishida KOH ning (20%) modifikator sifatida yuqori samaradorligi 120°C haroratda va 4 soat davomida borishi, g'ovaklik va adsorbsiya samaradorligining sezilarli ko'tarilishiga, bunda g'ovaklikning ortishi va kul miqdorining $17,9$ dan $4,35\%$ gacha kamayishi aniqlangan;

rentgenofazaviy tahlil asosida KOH bilan kimyoviy faollashtirish amorf uglerodga xos bo'lgan cho'qqilarning kamayishiga va grafitga o'xshash tuzilmalarni ko'rsatuvchi cho'qqilarning ko'payishiga olib kelishi, bunda KOHning 20%

eritmasi va karbonizatning 1:5 nisbatida eng past kul miqdori hamda eng yuqori uglerod miqdoriga ega ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qizilmiya ildizpoyasi asosida termik faollashtirish jarayonlarini o'tkazishning uslubiy asoslari ishlab chiqilgan;

qizilmiya ildizpoyasi asosida kaliy ishqoridan foydalangan holda kimyoviy faollashtirish jarayonlarini o'tkazishning uslubiy asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy fizik-kimyoviy (rengenofazoviy, termik, elektron-mikroskopik, rentgenodifraksion) va kolloid-kimyoviy (konduktometrik, adsorbsion) tahlillar va O'zbekiston Respublikasi yog'-moy sanoati korxonalarini birlashmasi bazasida o'tkazilgan sinov natijalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'simlik xomashyosiga termik va kimyoviy faollashtirish jarayonlarining metodologiyasini ishlab chiqish, kaliy ishqori eritmalaridan foydalanib karbonizatni kimyoviy faollashtirishning optimal shartlarini aniqlash bilan asoslanib, bu natijalar o'simlik xomashyosi asosida turli maqsadlar uchun ko'mir adsorbentlarini yaratish jarayonini maqsadli ravishda amalga oshirish uchun asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'simlik xomashyosi va sanoat chiqindilari asosida ko'mir adsorbentlarini olish texnologiyasini ishlab chiqishga va adsorbentlar turli sohalarda adsorbsion tozalash maqsadlarda qo'llanilishi mumkin hamda kimyo va kimyoviy texnologiya sohasida ta'lim muassasalarida magistrlar va bakalavrlarni tayyorlash uchun o'quv jarayonida qo'llashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Qizilmiya chiqindilari asosida g'ovakli materiallar olish va ularning kolloid-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qizilmiya ildizpoyasi chiqindilarining termik va kimyoviy faollashtirilishi natijasida olingan uglerod adsorbentlaridan foydalanib soya moyini erkin yog' kislotalari va bo'yoq moddalardan adsorbsion tozalash usuli "Namangan tola tekstil" MCHJ ning «2026-2030-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati» ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi yog'-moy sanoati birlashmasining 2024-yil 6-martdagi, KC/3-62-son ma'lumotnomasi). Natijada, yog'ning kislotalik darajasi 10,09-5,83 mg KOH/g ga teng bo'lgan va qizil hamda ko'k birliklar mos ravishda 1,8 dan 1,0 gacha va 1,2 dan 0,0 gacha kamayish imkonini beradi;

glitserinni AK5-800 uglerod adsorbentidan foydalanib adsorbsion tozalash usuli "URGANCH YOG'-MOY" MChJning «2026-2030-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati» ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi yog'-moy sanoati uyushmasining 2024-yil 6-martdagi KC/3-62-sonli guvohnomasi). Natijada AK5-800 uglerod adsorbenti glitserinning rangini va kul miqdorini kamaytirish hisobiga import qilingan uglerod adsorbentni almashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi Dissertatsiyalarning asosiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, 3 tasi respublika va 5 tasi xalqaro jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 114 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilab olingan, tadqiqot ob'ektlari va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilish holati, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'simlik xomashyosini termokimyoviy faollashtirish yo'li bilan ko'mirli adsorbentlar yaratish muammosi”** deb nomlangan birinchi bobida uglerodli adsorbentlarning asosiy jihatlari, uglerod saqlovchi xomashyoning strukturalari va xususiyatlariga issiqlik bilan faollashtirishning ta'siri, g'ovakli tuzilishni yaxshilash maqsadida uglerod saqlovchi xomashyoni kimyoviy faollashtirish usullari, organik ifloslantiruvchilardan tozalash uchun qishloq xo'jalik chiqindilari asosida faollashtirilgan ko'mir ishlab chiqarishning zamonaviy sanoat usullari va texnologiyalari tahlil qilingan. Mazkur bobda turli faollashtirish usullari hamda faollashtirilgan ko'mir ishlab chiqarishda qishloq xo'jalik chiqindilari hamda turli xil xomashyolarning salohiyati va samaradorligi batafsil yoritilgan.


Adabiyotlar sharhi o'simlik xomashyosi asosida termokimyoviy ishlov berish orqali yuqori samarali ko'mirli adsorbentlarni olish imkoniyatini ko'rsatadi. Adabiyotlarning tahlili ushbu ishda qo'yilgan maqsad va vazifalarni shakllantirishga imkon bergan.

Dissertatsiyaning **«Uglerod saqlovchi materialni tanlash va uning faollashtirilishi. Asosiy xususiyatlarni tadqiq qilish usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich materiallarni tadqiq qilish natijalari keltirilgan va ularning strukturasini o'rganish usullari yoritilgan.

Boshlang'ich material sifatida biomassa qoldiqlari — qizilmiya ildizpoyasi qoldig'i (QIQ) qo'llanilgan. Ushbu chiqindi qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha tashkilotlar Birlashmasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi)dan olingan.

Ildizpoya qoldig'i 20 mm dan oshmaydigan uzunlikdagi va 3 mm dan oshmaydigan qalinlikdagi bo'laklardan iborat bo'lgan. Ushbu namunalar hech qanday oldindan ishlov berilmasdan yoki maydalanmasdan tadqiqotda qo'llanilgan.

Olingan kul turli usullar, jumladan, rentgenofluoressent hamda rentgenodifraksiyon tahlil yordamida o'rganilib, bu orqali tarkibi va noorganik elementlarning konsentratsiyasi aniqlandi. Rentgenofazaviy tahlil natijalari 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Qizilmiya ildizpoyasi asosidagi qoldiqning kul qismi rentgenogrammasi.

Rentgenofazaviy tahlil ma'lumotlarining tahlili difraksiyon cho'qqilarning xususiyatlari asosida turli mineral fazalar mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Keltirilgan ma'lumotlar asosida kulning tarkibida kvars, anortit, ehtimol kalsit va boshqa silikat yoki karbonat minerallar mavjud deb taxmin qilish mumkin. Bunday mineralli tarkib o'simlik materiallaridan olingan kul uchun xosdir.


Faollashtirilgan ko'mir ishlab chiqarishning birinchi bosqichi xomashyoning piroliz jarayoni bo'lib, bu jarayonda karbonizatsiyalangan qattiq mahsulot hosil bo'ladi. Piroliz bo'yicha tajribalar argon atmosferasida, 40 ± 1 ml/s oqim tezligida o'tkazilgan, reaktor sifatida diametri 0,055 m va balandligi 1 m bo'lgan zanglamaydigan po'latdan yasalgan ko'chmas qatlamli reaktor xizmat qilgan. Termofaollashtirish piroliz o'tkazilgan shu qurilmada amalga oshirilgan. Uglerod materiallarining fizik-kimyoviy va adsorbsion xususiyatlariga harorat ($400-950^{\circ}\text{C}$) va faollashtirish davomiyligining (0,5-5,0 soat) ta'siri o'rganilgan.

2-rasmda karbonizatsiya jarayonida harorat va davomiylikka bog'liq ravishda massaning o'zgarish egrilari keltirilgan.

600°C dan past haroratda, barcha vaqt intervallari uchun massa yo'qotilishi minimal bo'ladi. Harorat 800°C va undan yuqoriga ko'tarilishi bilan massa yo'qotilishi sezilarli darajada ortib, 1000°C da maksimal qiymatiga yetadi.



2-rasm. Karbonizat massasining (%) harorat va jarayonning turli davomiyligiga (soat) bog'liqligi.



3-rasm. Karbonizatdagi kul komponentlari miqdorining faollashtirish haroratiga bog'liqligi.

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, faollashtirish harorati ortishi bilan kul qismining miqdori asta-sekin ortib boradi. Dastlabki namunadagi kul miqdori 10,4% ni tashkil qiladi. 400°C da karbonizatsiya qilingan namunada kul fraksiyasi 10,7% gacha biroz ortadi, bu ildizpoya qoldig‘i strukturasiidagi termik o‘zgarishlar boshlanishini ko‘rsatishi mumkin.

Eng ko‘p kullik miqdorining ortishi 700°C dan 900°C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida sodir bo‘ladi, bunda kul miqdori mos ravishda 15,45% dan 19,9% gacha ortadi.


1-jadvalda qizilmiya ildizpoyasi asosidagi chiqindining turli haroratlardagi pirolizi bo‘yicha tajriba natijalari taqqoslangan. Harorat ko‘tarilishi bilan ko‘mirning unumi 400°C da 41,9% dan 1000°C da 21,1% gacha kamayadi. Bu yuqori haroratlarda organik materialning jadalroq parchalanishini ko‘rsatadi. Maksimal qatron chiqishi 700°C da kuzatilib (23,3%), undan keyin uning qiymati kamaya boshlaydi. Bu yuqori haroratlarda qatronsimon komponentlar parchalanishi yoki gaz fazasiga o‘tishini ko‘rsatishi mumkin.

1-jadval.


Ildizpoya chiqindisi pirolizi jarayonida turli mahsulotlarning chiqishi (davomiylik 2 soat)

T, °C	Mahsulot chiqishi, %			Ko‘mirdagi uchuvchan moddalar, %	Ko‘mirning kulligi, %
	Ko‘mir	Qatron	Gazsimon		
400	41,9	14,8	43,3	21,5	10,7
500	40,8	16,3	42,9	21,1	11,8
600	39,5	17,8	42,7	20,9	14,2
700	32,0	23,3	44,7	22,9	15,5
800	28,1	21,2	50,7	28,9	17,9
900	25,8	19,8	54,4	32,6	19,9
1000	21,1	14,3	64,6	0,8	21,8


Gazsimon mahsulotlar chiqishi harorat oshishi bilan ortib, 400°C da 43,3% dan 1000°C da 64,6% gacha yetadi. Bu esa yuqori haroratlar uglerod saqlovchi moddalarning gazlashuviga yordam berishini ko‘rsatadi.




A)



B)



C)



D)

4-rasm. 1) 600; 2) 700; 3) 800; 4) 900°C haoratlarda termofaollashtirilgan ko‘mirlarning elektron-mikroskopik tasvirlari:


Ko‘mirning kulligi harorat ortishi bilan ortib boradi, 400°C da 10,7% dan boshlab, 1000°C da 21,8% ga yetadi. Bu organik moddalarning termik parchalanishidan keyin ko‘mirda noorganik komponentlarning konsentratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

4-rasmdan ko‘rish mumkinki, 600°C haroratda olingan ko‘mir nisbatan silliq yuzaga va kichik g‘ovaklarga ega. Strukturasi ancha zich bo‘lib, bu karbonizatsiyaning boshlang‘ich bosqichlarida organik komponentlarning to‘liq parchalanmaganligini ko‘rsatadi. 700°C haroratda ko‘mir yuzasidagi g‘ovaklar sezilarli darajada ortadi. Material parchalana boshlagan maydonlar ko‘rinadi, bu esa g‘ovaklikning ortishiga yordam beradi. Bu moddaning faolroq parchalanishi va g‘ovaklarning hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.


800°C haroratda struktura oldingi tasvirlar bilan solishtirganda ancha chuqur va g‘ovakli bo‘ladi. Ko‘proq va turli xil katta g‘ovaklarning hosil bo‘lishi kuzatiladi, bu esa kuchaytirilgan parchalanish va ko‘mirning adsorbsion xususiyatlarining yaxshilanishini ko‘rsatadi. 800°C haroratda ko‘mirning strukturasi yuqori g‘ovaklik va murakkab mikrostrukturalarning rivojlanishini namoyon etadi. Bu ko‘mirning ichki yuzasining sezilarli darajada ortib borganini ko‘rsatadi, bu uni adsorbent sifatida yuqori samaradorligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning **“Qizilmiya ildizpoyasi chiqindisidan olingan ko‘mirni kimyoviy faollashtirish. Termo va kimyoviy faollashtirilgan ko‘mirning tekstur xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida qizilmiya ildizpoyasi chiqindisidan olingan ko‘mirni kimyoviy faollashtirish jarayoni ko‘rib chiqilgan. Bunda ko‘mirning termik va kimyoviy ishlovdan so‘nggi tekstur xususiyatlaridagi o‘zgarishlarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kimyoviy faollashtirish KOH eritmasidan foydalangan holda amalga oshirilgan, bunda aktivator eritmasi sarfi, harorat (xonani haroratidan 120°C gacha) va faollashtirish davomiyligi (0,5 soatdan 24 soatgacha) ta’siri o‘rganilgan. Dastlabki o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida 20% li eritma tanlangan.



5-rasm. Faollashtirish jarayonida KOH/karbonizatning massaviy nisbatiga bog‘liq holda kul miqdorining o‘zgarishi.



6-rasm. Chiqindining termik ishlovdan o‘tkazilishida namlikning o‘zgarishi.

KOH eritmasining 500°C da olingan karbonizatga (KC-500) ta’sirini tadqiq qilish jarayonida, KOH eritmasi massasining karbonizatga nisbatiga bog‘liq holda kul miqdorida sezilarli o‘zgarishlar aniqlandi. Kul miqdorining dastlabki sezilarli darajada kamayishi, ya’ni 17,9% dan 4,35% gacha tushishi KOH eritmasi orqali


karbonizatning mineral komponentlarining yuvilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa uning olib chiquvchi agent sifatida yuqori samaradorligini ko‘rsatadi.

Biroq, KOH eritmasi massasining karbonizatga nisbati 7 ga yetganda, kul miqdorining 4,57% gacha biroz ortishi bir necha omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ehtimol, KOH yuqori konsentratsiyasida avval ekstraksiya qilingan eriydigan mineral komponentlarning ikkinchi darajali to‘planishi boshlanadi. Bu ayrim mineral moddalarning yuqori konsentratsiyali ishqoriy eritmalardagi eruvchanlik qobiliyatining o‘zgarishi yoki eritmaning erigan komponentlar bilan to‘yinishi natijasida yuz berib, ularning qisman qayta kristallanishi va kul miqdorining ortishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bunday sharoitlarda hosil bo‘lgan materiallarning g‘ovakli strukturasi ham ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.


Shunday qilib, natijalar KOH eritmasi massasining karbonizatga nisbatini maqbullashtirish zarurligini ko‘rsatadi, ya‘ni kul miqdorini minimal darajada ushlab uchun bu nisbat 1 dan 5 gacha bo‘lishi kerak. Buning ortidan mineral komponentlarni yuvish samaradorligi pasayadi va kul miqdori ortadi. Shuningdek, KOH eritmasi sarfining ortishi bilan unumdorlik ham pasayadi (KOH:karbonizat=1:1 (AK1) nisbatida chiqish 22,9% ni tashkil etsa, 1:3; 5 va 7 (AK3; AK5 va AK7, mos ravishda) nisbatlarida chiqish 22,2; 21,8 va 21,3% ni tashkil etadi). Bu karbonizatni tozalash jarayonida KOH konsentratsiyasini nazorat qilish zarurligini va optimal natijalarga erishish muhimligini ta‘kidlaydi.

400 dan 700°C gacha bo‘lgan haroratlarda namlikning kamayish tendensiyasi kuzatiladi, bu dehidratatsiya va organik komponentlarning parchalanishi jarayonlarining kuchayishini va namlik yo‘qotilishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. 700°C haroratda eng past namlik ko‘rsatkichi qayd etilgan bo‘lib, bu ushbu sharoitda namunadan maksimal darajada suvning chiqib ketganligini ko‘rsatishi mumkin.


KC-500 dastlabki karbonizatning SEM tasviri turli xil o‘lcham va shakllarga ega bo‘lgan, noto‘g‘ri va singan zarralarni ko‘rsatadi. Aniq qirralar va nisbatan silliq yuzalar, shuningdek, ko‘zga ko‘rinadigan g‘ovaklik mavjud. Tasvirdagi eng katta aniqlangan o‘lcham 35,36 mkm ni tashkil etadi, bu boshqa namunalariga nisbatan yirik zarralarning mavjudligini ko‘rsatadi.



1)



2)



7-rasm. Namunalarning mikroskopik tasvirlari: 1) KC-500; 2) AK5; 3) AK5-800.


3)

AK5 namunasi yuqori g'ovakli struktura va rivojlangan yuza maydonini ko'rsatadi, bu faollashtirilgan ko'mirlar uchun xosdir. G'ovaklar turli o'lcham va shakllarga ega bo'lib, g'ovaklarining geterogen taqsimlanishini ko'rsatadi.


AK5-800 tasviri g'ovakli strukturaning yanada rivojlanganligini, katta va yaqqol ko'zga tashlanadigan g'ovaklar bilan namoyish etadi. Termik faollashtirish g'ovaklikni kuchaytirgan va qo'shimcha uchuvchi moddalarni olib tashlagan bo'lishi mumkin, bu esa g'ovaklarning yanada toza va ochiq strukturaga olib kelgan.

KC-500 zarrachalari katta aglomeratlardan iborat bo'lib, nisbatan silliq yuzalar va kamroq g'ovaklarga ega. Eng katta o'lchangan zarra o'lchami 35,36 mkm ni tashkil qiladi. AK5 tasviridan ko'rish mumkinki, zarrachalar ancha rivojlangan g'ovakli strukturaga ega. Eng katta o'lchangan g'ovak o'lchami 22,15 mkm ni tashkil etadi. AK5-800 mikrotasvirlarida g'ovaklar o'lchami 10,76 mkm gacha yetadi, bu 2-rasmdagiga qaraganda kichikroq, lekin g'ovaklar ancha ochiq va bir xil taqsimlangandek ko'rinadi.

Qizilmiya ildizpoyasi chiqindisidan olingan ko'mirlarning tekstur parametrlariga termo va kimyoviy ishlov berilishi (20% KOH eritmasi bilan) qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganildi va ushbu o'zgarishlar zahirida yotgan mexanizmlar muhokama qilindi. Uglerod materiallarining turli usullar bilan ishlov berilgan holdagi solishtirmasiga alohida e'tibor qaratiladi, bu esa ularning sanoatdagi qo'llanilishini yaxshilash maqsadida eng samarali faollashtirish usullarini aniqlashga qaratilgan.




8-rasm. Turli haroratlarda olingan karbonizatlarda azotning adsorbsiya/desorbsiya izotermalari: 1) KC-500; 2) KC-600; 3) KC-700; 4) KC-800; 5) KC-900; 6) KC-950.




9-rasm. Faollashtirilgan namunalarda azotning adsorbsiya va desorbsiya izotermalari: 1) AK1-800; 2) AK3-800; 3) AK5-800; 4) AK7-800.

Karbonizatsiya jarayonining davomiyligi va harorati materiallarning g'ovakli tuzilishiga ta'sir qiladi. 8 va 9-rasmlarda turli haroratlarda olingan karbonizatlar va kimyoviy faollashtirilgan ko'mirlarda azotning adsorbsiya izotermalari tasvirlangan.

Qizilmiya ildizpoyasi chiqindisi asosidagi karbonizatlar uchun azotning adsorbsiya/desorbsiya izotermalari I tur (past nisbiy bosimlarda; $P/P_0 < 0,05$ da adsorbsiyaning keskin oshishi mikrog'ovakli qattiq moddalar uchun xos) va IV tur izotermalari gibridlaridir.



10-rasm. Qizilmiya ildizpoyasi chiqindisining 2 soat davomida termik ishlov berilishida solishtirma sirt maydonining o'zgarishi.



11-rasm. Karbonizatsiya haroratiga bog'liq ravishda g'ovak hajmining o'zgarishi.

10-rasmdan ko'rinib turibdiki, haroratning 500°C dan taxminan 700°C gacha ortishi bilan solishtirma sirt yuza sekin-asta ortib boradi. Bu organik komponentlarning yonishi bilan bog'liq bo'lib, g'ovaklarning hosil bo'lishi va materialning g'ovakligining ortishiga olib keladi.

800-850°C harorat oralig'ida solishtirma sirt yuzasi maksimal qiymatiga yetadi, bu namunaning g'ovakli strukturasi rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni ko'rsatadi. Bu bosqichda maksimal solishtirma sirt yuza taxminan 169,8 m²/g ni tashkil qiladi.

850°C dan yuqori haroratda solishtirma sirt yuzasining kamayishi kuzatiladi. Bu strukturaviy o'zgarishlar, masalan, g'ovaklarning qo'shilishi yoki buzilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bu esa umumiy g'ovaklikning kamayishiga olib keladi.

Solishtirma sirt yuza (169,8 dan 77,5 m²/g gacha) va umumiy adsorbsiya hajmida (62 dan 30 sm³/g gacha) yaqqol kamayish kuzatilib, bu 900°C da yuqori harorat ta'siri bilan bog'liq bo'lib, tashqi yuzani buzilishiga va shu bilan umumiy yuza maydonining yo'qolishiga olib keladi. Shundan so'ng, 950°C haroratda solishtirma sirt yuzaning takror o'sishi kuzatilib, bu qolgan uglerod komponentlarining yanada parchalanishi va yangi g'ovakli strukturalarning hosil bo'lishi natijasi bo'lishi mumkin. Bu takroriy o'sish past haroratlarda boshqa moddalar bilan tiqilib qolgan yoki to'silib qolgan muayyan turdagi g'ovaklarning faollanishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

11-rasmdan ko'rinib turibdiki, karbonizatsiya harorati 500 dan 800°C gacha oshirilishi bilan mikrog'ovaklar hajmi (V_a) ortib boradi, bu harorat oshishi bilan mikrog'ovakli struktura rivojlanishining yaxshilanishini ko'rsatadi. Eng katta

mikrog'ovaklar hajmi 800°C da kuzatiladi, bu ushbu materialda mikrog'ovakli struktura hosil bo'lishi uchun maqbul harorat bo'lishi mumkin. Biroq, haroratni 900 va 950°C ga oshirish bilan V_a kamayishi kuzatiladi, bu mikrog'ovakli strukturaning buzilishi yoki mikrog'ovaklarning kattaroq g'ovaklarga qo'shilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

500°C haroratda mezog'ovaklar eng katta hajmni egallaydi. Bu g'ovakli strukturaning hosil bo'lishining boshlang'ich bosqichi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bunda ko'pchilik g'ovaklar hali mikrog'ovakli o'lchamlarga etib bormagan. 600°C haroratda mezog'ovaklar hajmi kamayadi, bu g'ovaklar o'lchamlarining kichiklashishi va mikrog'ovakli strukturaning hosil bo'lishi jarayonining boshlanishini ko'rsatishi mumkin. Haroratni 800°C ga oshirish bilan mezog'ovaklar hajmi yana ortib, ushbu oraliqda maksimal qiymatiga yetadi, bu esa optimal mezog'ovakli strukturaning hosil bo'lishini ko'rsatadi.

900 va 950°C haroratlarda mezog'ovaklar hajmi va umumiy g'ovaklik tizimining keskin kamayishi kuzatiladi, bu g'ovaklarning qo'shilishi yoki strukturaning buzilishi natijasida bo'lishi mumkin.

900 va 950°C haroratlarda ham mikro, ham mezog'ovaklar hajmining kamayishi yuqori haroratlarda materialning g'ovakli strukturasini saqlash maqsad qilinganda noqulay bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

AK5-800 va AK3-800 namunalari AK1-800 va AK7-800 ga qaraganda yuqori adsorbsion qobiliyatga ega, chunki AK5-800 va AK3-800 uchun qiymatlar yuqoriroq bo'lib, bu bir xil nisbiy bosimlarda ko'proq miqdorda adsorbsiya qilingan moddani ko'rsatadi. Barcha namuna nisbiy bosimlar past bo'lgan holatda to'yinish (tekislik) holatiga etadi, bu yuqori adsorbsion faollik va katta miqdordagi mikrog'ovaklar mavjudligini ko'rsatishi mumkin.

Shunday qilib, izotermalardan ko'rish mumkinki, faollashtiruvchi agenti (KOH) miqdorining ortishi faollashtirilgan ko'mirlarning adsorbsion qobiliyatini oshiradi. Bu jadvalda keltirilgan tekstur hususiyatlari bilan muvofiq kelib, karbonizat va KOH nisbatining yuqoriligi katta solishtirma sirt va g'ovak hajmini ta'minlagan.

Izotermalar asosida uglerod namunalarning tekstur xarakteristikalari qiymatlari hisoblab chiqilib, ko'rsatkichlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Namunalarning tekstur hususiyatlari

Namuna	S_y , m^2/g^*	S_y , m^2/g^{**}	t-Plot, m^2/g	V , sm^3/g	t-Plot (mikrog'ovak hajmi), V_a , sm^3/g	R , Å	O'rtacha teshik kengligi, Å	O'rtacha gidravlik g'ovak radiusi, Å
AK1-800	447,4	698,9	359,96	0,2473	0,1986	22,107	134,108	6,715
AK3-800	799,6	1283,2	632,78	0,4504	0,3488	22,530	75,031	6,708
AK5-800	917,6	1451,2	714,35	0,5097	0,3936	22,215	65,381	6,709
AK7-800	837,7	1333,0	652,51	0,4686	0,3608	22,372	71,618	6,715

Solishtirma sirt yuza AK1-800 dan AK5-800 ga qadar ortadi, bu faollashtiruvchi agent (KOH) miqdorining ko'payishi bilan bog'liq bo'lishi


mumkin. Yuzaning kattalashishi yuqori adsorbsion sig‘imni ta‘minlaydi, bu adsorbsiya izotermalari bilan tasdiqlanadi. Ammo, AK7-800 AK5-800 dan ancha kichik solishtirma sirt yuzaga ega bo‘lib, bu KOH miqdori ortishi bilan ma‘lum bir chegaraga yetishini ko‘rsatadi, ushbu chegaradan keyin KOH miqdorining ortishi solishtirma sirtning ortishiga olib kelmasdan, g‘ovaklarning zichlashishi yoki to‘silishiga sabab bo‘ladi. Mikro (V_a) va mezog‘ovaklar (V_b) hajmi ham KOH eritmasi sarfining ortishi bilan ortadi.

G‘ovaklar o‘lchami barcha namunalarda nisbatan barqaror bo‘lib, bu KOH konsentratsiyasining o‘zgarishi g‘ovaklar soniga ko‘proq ta‘sir qilayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, average pore, hydraulic radius ham nisbatan barqaror bo‘lib, KOH konsentratsiyasiga aniq bog‘liqlikni ko‘rsatmaydi.

AK1-800 dan AK5-800 gacha bo‘lgan namunalarda median pore width kamayadi, bu yuqori KOH konsentratsiyasida ko‘mir zarrachalarining kuchliroq parchalanishi natijasi bo‘lishi mumkin. Ammo AK7-800 namunasida g‘ovak o‘lchami AK5-800 ga nisbatan ortib boradi, bu faollash mexanizmining o‘zgarishi yoki zarrachalarning aglomeratsiyasi natijasi bo‘lishi mumkin.

Dissertatsiyaning «**Qizilmiya ildizpoyasi chiqindisi asosidagi faollashtirilgan ko‘mirlarning adsorbsion xususiyatlari. Oqish moylarni tozalashda ko‘mirlarning qobiliyatini tahlil qilish**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida qizilmiya ildizpoyasi chiqindisi asosidagi faollashtirilgan ko‘mirlarning adsorbsion xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

Organik adsorbatlar bug‘larining 20°C haroratda adsorbsiya izotermalari vazniy usulda olingan. 12-rasmda faollashtirilgan ko‘mirlarda benzol bug‘larining adsorbsiya izotermalari keltirilgan.



12-rasm. Termofaollashgan ko‘mirlarda benzol bug‘i adsorbsiyasi izotermalari.

Faollash haroratining KC-500 dan KC-950 gacha ko‘tarilishi bilan ko‘mirlarning adsorbsion qobiliyati sezilarli darajada ortib boradi. Yuqori haroratlarda ishlov berilgan ko‘mirlar (KC-700, KC-800, KC-950) past haroratlarda faollashtirilgan ko‘mirlarga (KC-500, KC-600) nisbatan yuqori adsorbsiya qiymatlarini namoyon qiladi.

Barcha izotermalar nisbiy bosim ortishi bilan adsorbsiyaning chiziqsiz o‘shishini ko‘rsatadi, bu fizik adsorbsiya uchun xosdir. KC-800 va KC-950 larning past bosimdagi yuqori adsorbsiyasi ushbu namunalardagi mikrog‘ovaklar va

mezog'ovaklarning yuqori darajada mavjudligini ko'rsatishi mumkin, bu boshqa namunalarga nisbatan ko'proq adsorbsiya qilish qobiliyatini ta'minlaydi.

4-jadval.

Benzol bo'yicha ko'mirlarning adsorbsion xususiyatlari

Namuna	A_0 , mmol/g	S , m^2/g	V_a , sm^3/g	V_b , sm^3/g	R , Å
KC-500	0,122	11,26	0,008	0,011	19,2
KC-600	0,528	45,28	0,036	0,047	20,7
KC-700	0,693	72,48	0,051	0,061	16,9
KC-800	1,668	156,92	0,115	0,148	16,6
KC-900	0,540	71,97	0,045	0,048	13,3
KC-950	0,890	91,94	0,065	0,079	17,2
AK1-800	2,813	677,36	0,360	0,050	12,0
AK3-800	3,226	776,90	0,419	0,050	12,0
AK5-800	3,743	901,20	0,473	0,080	12,2
AK7-800	3,293	793,02	0,418	0,070	12,2

Yuqori konsentratsiyali KOH bilan ishlov berilgan (AK5-800 va AK7-800) namunalar AK1-800 va AK3-800 ga nisbatan yaxshiroq adsorbsion xususiyatlarni namoyon qiladi. Bu ko'mirlarning yuqori konsentratsiyali faollashtirish natijasida hosil bo'lgan chuqurroq g'ovakli tuzilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Adsorbsion sig'imning ortishi karbonizatsiya haroratining KC-500 dan KC-900 gacha oshishi bilan kuzatiladi, bu yuqori haroratlarda benzolni adsorbsiya qilish uchun samaraliroq strukturalarning hosil bo'lishiga yordam berishini ko'rsatadi.

KOH eritmasi va qo'shimcha termofaollash orqali 800°C da olingan faollashtirilgan ko'mirlar (AK1-800, AK3-800, AK5-800, AK7-800) faollashmagan ko'mirlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori adsorbsion sig'imni ko'rsatadi, bu kimyoviy faollashtirishning adsorbsion xususiyatlarni yaxshilashdagi samaradorligini ko'rsatadi. G'ovaklarning o'lchamlari faollashtirilgan ko'mirlar uchun nisbatan barqaror bo'lib, 12-12,2.Å oralig'ida o'zgaradi, bu kimyoviy faollashtirish natijasida mikrog'ovakli materiallarga hosil bo'lgan g'ovakli strukturalarning hosil bo'lishini ko'rsatadi.

4-jadval.

Suv bug'iga nisbatan ko'mirlarning adsorbsion xususiyatlari

Namuna	A_0 , mmol/g	S , m^2/g	V_a , sm^3/g	V_b , sm^3/g	R , Å
KC-500	1,525	99,12	0,076	0,115	23,2
KC-600	1,412	91,78	0,070	0,104	22,8
KC-700	1,680	109,24	0,097	0,148	27,2
KC-800	0,977	63,49	0,077	0,133	41,9
KC-900	0,881	57,28	0,085	0,191	66,9
AK1-800	0,478	31,05	0,046	0,128	82,5
AK3-800	0,408	26,54	0,049	0,129	97,4
AK5-800	0,593	38,54	0,065	0,137	71,2

Harorat ko'tarilishi bilan KC-700 namunasi V_a va V_b qiymatlarining yuqori bo'lishini ko'rsatadi, bu g'ovaklikning ortishiga ishora qiladi. G'ovak radiusining harorat ko'tarilishi bilan ortishi g'ovak o'lchamlarining kattalashishini va kichik molekullarni adsorbsiya qilishda ularning samaradorligining kamayishini ko'rsatishi mumkin.

KOH bilan kimyoviy faollashtirilgan va 800°C da termoshlov berilgan ko'mirlar (AK5-800 va AK7-800) termoshlov berish bilan kifoyalangan ko'mirlarga (KC-700, KC-800) nisbatan solishtirma sirti va g'ovak hajmining kamayishini namoyon qiladi. Bu kimyoviy faollashtirishning g'ovak strukturasi sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. AK5-800 namunasi kimyoviy faollashtirilgan ko'mirlar orasida eng katta mikrog'ovak va mezog'ovak hajmiga ega bo'lib, bu uning muayyan qo'llanmalar uchun yaxshiroq adsorbsion xususiyatlarga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Soya moyining rangdorligi tajribalar davomida GOST 5477-93 standartiga muvofiq aniqlandi. Tajribalar xona haroratida o'tkazildi, adsorbent sarfi moy massasining 2% ni tashkil etdi. Moyning dastlabki kislotali soni 10,09 mg/100 g bo'lib, bu ma'lum darajada oksidlanish yoki erkin yog' kislotalari mavjudligini ko'rsatadi. Adsorbent AK3-800 ni qo'llashdan so'ng kislotali soni 4,48 mg/100 g gacha pasayadi, bu erkin yog' kislotalari yoki oksidlanish mahsulotlari miqdorining sezilarli darajada kamayganligini ko'rsatadi.

AK5-800 va AK7-800 adsorbentlari ham kislotali sonini mos ravishda 5,61 va 5,83 mg/100 g gacha pasaytiradi, lekin AK3-800 kabi samarali emas.

5-jadval.

Soya moyining rangdorligining adsorbsion tozalashdan oldin va keyingi o'zgarishi

Adsorbentlar	qizil	sariq	ko'k	neytral
-	1,8	6,9	1,2	0
AK3-800	1,0	5,4	0	0
AK5-800	1,0	5,2	0	0
AK7-800	1,0	5,5	0	0

5-jadvalning tahlili, turli adsorbentlar (AK3-800, AK5-800, AK7-800)dan foydalanish orqali soya moyining adsorbsion tozalashdan oldin va keyingi rangdorligi o'zgarishini ko'rsatadi. Adsorbentlarsiz soya moyining boshlang'ich rangdorligi: qizil komponent 1,8, sariq komponent 6,9, ko'k komponent 1,2, neytral komponent mavjud emas (0).

AK3-800 adsorbentini qo'llashda moyning rangdorligi o'zgaradi: qizil komponent 1,0 ga, sariq komponent 5,4 ga kamayadi, ko'k komponent va neytral komponent mavjud emas (0). AK5-800 adsorbentini qo'llashda o'xshash natijalar kuzatiladi: qizil komponent 1,0, sariq komponent 5,2, ko'k komponent va neytral komponent mavjud emas (0). AK7-800 adsorbentini qo'llashda qizil komponent ham 1,0 ga, sariq komponent 5,5 ga kamayadi, ko'k komponent va neytral komponent mavjud emas (0).

XULOSA

1. Qizilmiya ildizpoyasi chiqindisi ko'mir adsorbentlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida katta salohiyatga ega ekanligi aniqlandi, 8-12% namlik miqdori uni piroliz yoki kimyoviy faollashtirish jarayonlarida qo'shimcha tayyorgarliksiz qo'llashga tayyorligini ko'rsatadi. O'rtacha kul miqdori (3-5%) va

yuqori uchuvchan moddalar miqdori (67-73%) organik komponentlar boyligini ko'rsatib, bu termik ishlov berishda g'ovakli tuzilma hosil bo'lishiga yordam beradi.

2. Qizilmiya ildizpoyasi chiqindisining termik ishlov berish uning tuzilmasi va kimyoviy tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi, va haroratni 400 dan 950°C gacha oshirishda organik komponentlarning parchalanishi bosqichma-bosqich qiyinlashib boradi, bu kul miqdorining ortishi va uglerod ulushining kamayishi bilan tasdiqlanadi, uchuvchan moddalar esa ko'mirida saqlanib qoladi. 1000°C haroratda ko'mirning kulligi 21,8% ga yetadi, bu esa mineral qoldiqlarning intensiv shakllanishi va organik materiallarning yo'qolishini ko'rsatadi.

3. 20% li KOH eritmasi bilan 120°C gacha bo'lgan haroratda va faollanish vaqtlari 0,5 dan 24 soatgacha bo'lgan kimyoviy faollashuv g'ovaklik va adsorbsiya samaradorligini sezilarli darajada oshishiga olib kelishi aniqlandi. Kimyoviy faollashuvdan keyin kul miqdori 17,9 dan 4,35% gacha kamaydi, bu KOH ning modifikatsiya qiluvchi vosita sifatida yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

4. Rentgen fazasi tahliliga asoslanib, KOH bilan kimyoviy faollashuv amorf uglerodning xarakterli cho'qqilarini kamaytirishi va grafitga o'xshash tuzilmalar mavjudligini ko'rsatadigan cho'qqilarni oshirishi aniqlandi. 20% li KOH eritmasining ko'mir massasiga nisbati 1:5 bo'lganida kul miqdori 4,35% gacha kamayadi, bu jarayonning yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

5. Qizilmiya ildizpoyasi chiqindisining termik ishlov berish jarayonida 500 dan 700°C gacha bo'lgan haroratda solishtirma sirt maydonining asta-sekin ortib borishi kuzatildi, bu organik komponentlarning yonishi va g'ovaklarning shakllanishi bilan izohlanadi. Eng yuqori solishtirma sirt maydoni 800-850°C gacha bo'lgan haroratda erishiladi va 169,8 m²/g ni tashkil etadi, bu g'ovakli tuzilmaning eng samarali rivojlanishini ko'rsatadi. Harorat 850°C dan yuqori bo'lganda esa solishtirma sirt maydoni 77,5 m²/g gacha pasayadi, bu tuzilmaviy o'zgarishlar bilan bog'liq.

6. Qizilmiya ildizpoyasi chiqindisi asosidagi faollashtirilgan uglerodlar soya moyi va distillangan glitserinni tozalashda yuqori samaradorlik ko'rsatishi aniqlandi. Glitserin uchun bu uglerodlardan foydalanish rang indeksini 10 dan 0 mg I₂/100 sm³ gacha va kul tarkibini 0,25 dan 0,03% gacha kamaytirdi, eng yaxshi glitserin namunalarning sifat standartlariga javob beradi. Bu natijalar oziq-ovqat va kimyo sanoatida mahsulot sifatini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan adsorbentlarning yuqori salohiyatini tasdiqlaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02.30.12.2019.К/Т35.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТЕ
ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

ХОШИМОВ ШАХРОМ МАНСУРЖОН УГЛИ

**ВЛИЯНИЕ АКТИВАЦИИ С ГИДРОКСИДОМ КАЛИЯ НА
СТРУКТУРУ И АДсорбЦИОННЫЕ СВОЙСТВА УГЛЕРОДНЫХ
МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ОТХОДА СОЛОДКИ**

02.00.11 – Коллоидная и мембранная химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.1.PhD/K739

Диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.ionx.uz и Информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:

Эшметов Иззат Дусимбатович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Якубов Йулдош Юсупбоевич
доктор химических наук, профессор

Исмаилов Ровшан Исроилович
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский химико-технологический институт

Защита состоится « 27 » август 2024 г. в «10⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.02.30.12.2019.K/T35.01 при Институте общей и неорганической химии по адресу: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а. Тел.: (+99871) 262-56-60; факс: (+99871) 262-79-90; e-mail: ionx@academy.uz.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Института общей и неорганической химии за № 18, с которой можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре (100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а). Тел.: (+99871) 262-56-60; факс: (+99871) 262-79-90.

Автореферат диссертации разослан « 12 » августа 2024 года.
(Реестр за № 18 от « 12 » августа 2024 года).



Закиров Б.С.

Председатель научного совета по присуждению
ученой степени, д.х.н., проф.

Салиханова Д.С.

Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н., проф.

Б.З.Адизов

Зам. председателя научного семинара при научном совете
по присуждению ученой степени, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире в последние годы усиливаются требования к качеству очистки воздуха, сточных вод и продовольственных продуктов, что вызвано растущей промышленной деятельностью и ужесточением экологических норм. В этом контексте особое значение приобретает разработка новых, эффективных и экологичных адсорбентов на основе возобновляемых ресурсов, таких как растительное сырьё. Создание угольных адсорбентов из растительного сырья позволит не только снизить зависимость от традиционных невозобновляемых материалов, но и имеет важное значение для значительного повышения экономической и экологической эффективности процессов очистки.

В мире ведутся научные и практические исследования по созданию новых адсорбентов на основе местного сырья и промышленных отходов, а также их применению для очистки сточных вод, растительных масел и других жидкостей. В данном аспекте особое внимание уделяется обоснованию ряда научных решений, включая: подбору местных сырьевых ресурсов и промышленных отходов, термической активации растительного сырья и его химической модификации, созданию угольных адсорбентов с улучшенными адсорбционными характеристиками и пористой структурой, изучению условий взаимодействия угольных адсорбентов с загрязнителями в различных неорганических и органических средах и созданию технологий производства угольных и других адсорбентов.

В Республике достигаются научные и практические результаты по получению новых материалов, в частности по разработке технологий производства угольных адсорбентов на основе местного растительного сырья. В третьем направлении стратегии развития Нового Узбекистана, направленной на дальнейшее развитие Республики Узбекистан на 2022-2026 годы определены задачи в направлениях «Обеспечение устойчивости национальной экономики и увеличение промышленности в общей внутренней продукции, увеличение объема производства промышленности продукции в 1,4 раза»¹. В этом аспекте имеет большое значение создание высокоэффективных угольных адсорбентов, отвечающих современным требованиям пищевой промышленности и охраны окружающей среды, установлению связи между способами активации и функциональными характеристиками адсорбентов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит осуществлению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «Стратегия действий по приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3236 от 23 августа 2017 года «О программе ускоренного развития химической

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года.

